

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
QARSHI FILIALI**

**KOMPYUTER INJINIRINGI
fakulteti
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
kafedrasi**

« Asaka bank aktiv va passivlar bazasini boshqarish tizimini yaratish»

Mavzusida

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi _____ Islomov J

Raxbar _____

Taqrizchi _____

*“Himoyaga ruxsat etildi”
“Telekommunikatsiya injiniringi”
kafedrasi mudiri _____
I.f.d. X.S. Muxitdinov
“_____” _____2015 y*

*Himoya uchun DAKga yuborildi:
“Axborot texnologiyalari”
fakulteti dekani _____
S.Davronov
“_____” _____2015 y*

МУНДАРИЖА

	Кириш	6
Asaka bank aktiv va passivlar bazasini boshqarish tizimini yaratish		
I.	I –Bob UzR da tijorat banklari aktivlarini moliyaviy boshqarish asoslari.	14
1.1.	Tijorat banklari aktivlari moliyaviy mohiyati, mazmuni .	14
1.2.	Tijorat banklari aktivlari daromadlilik darajasining moliyaviy shakllanishi	
1.3.	Tijorat banklari aktivlarining tashkiliy iqtisodiy va moliyaviy boshqarish usullarii	19
II.	II-Bob Ma’lumotlar bazasini loyihalashni ASAKA Bank misolida namoyishi	33
2.1	MS Access tizimida ma’lumotlar bazasini loyihalash	33
III.	3.Bob ATIB ASAKA BANK bank filiali aktivlari taxlili	51
3.1.	Tijorat bankining moddiy aktivlarining moliyaviy taxlili	51
3.2.	Tijorat bankining nomoddiy aktivlarining moliyaviy taxlili	
	Хулоса	77
	Адабиётлар	80

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АЛОҚА, АХБОРОТЛАШТИРИШ ВА
ТЕЛЕКОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ДАВЛАТ ҚЎМИТАСИ**

**ТОШКЕНТ АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ УНИВЕРСИТЕТИ
ҚАРШИ ФИЛИАЛИ**

**КОМПЬЮТЕР ИНЖИНИРИНГИ
факультети**

“Информатика ва ахборот технологиялари” таълим йуналиши

«Тасдиклайман»

_____ каф. Мудир
И.ф.д. Х.С.Мухитдинов «____»
_____ 2015й

Bitiruv malakaviy ish buyicha topshiriq

Talaba

Islomov J

1.Malakaviy ish mavzusi: Asaka bank aktiv va passivlar bazasini boshqarish tizimini yaratish

2.TATU Karshi filialining № _____ buyrug‘i bilan _____ da tasdiqlangan

3.Malakaviy ishni topshirish muddati _____ 2015y _____

4. Malakaviy ish uchun ma’lumotlar: Ta’limda loyihalar uslubidan foydalanish texnologiyasi, loyihalar turlari, dasturlashtirish va ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi o‘quv loyixalarining mazmuni, tarkibi, ushbu texnologiyaning ta’lim tizimida, jumladan rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida tutgan o‘rni to‘g‘risidagi Internet materiallari, dasturlashtirish va ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi o‘quv loyihalariga oid o‘quv materiallari, AKTdan foydalanishda xavfsizlik texnikasi oid o‘quv va elektron adabiyotlar.

5.Xisobiy izoh qismining mazmuni (ishlab chiqilishi lozim bulgan savollar ruyxati): Mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, dasturlashtirish va ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi o‘quv loyihalari to‘g‘risida umumiy tushunchalar, tashkil etish texnologiyasi va ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni. Dasturlashtirish va ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi o‘quv loyihalarini tashkil etish, prinsiplari, loyiha tarkibini aniqlashning umumiy yo‘nalishlari, undan foydalanishga qo‘yilgan asosiy talablar, loyihalar tipologiyasi va turlari, loyihalarini tashqi baholashni tashkil etish. Soha KHK doirasida “AKT dan foydalanishda xavfsizlik

texnikasi” mavzusida dasturlashtirish va ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi o’quv loyihalarini tashkil etish texnologiyasini ishlab chiqish.. Hayot faoliyat xavfsizligi. Xulosa

6. Grafik materiallar. Slaydlar: (bajarilishi shart bulgan chizma va grafiklar): Dasturlashtirish va ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi loyihalarining mazmuni, turlari, loyihaviy faoliyatni tashkil etish prinsiplari, dasturlash va ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimida loyihaviy faoliyat, “AKT dan foydalanishda xavfsizlik texnikasi» mavzusini o’tishda ta’lim texnologiyasi va texnologik xaritasi, mavzuni soha korxonalar doirasida dasturlashtirish va ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimi o’quv loyihasi asosida tashkil etish texnologiyasi.

7. Malakaviy ishni bajarilishi bo’yicha kalendar grafik

No	Malakaviy ishning bulimlari	Malakaviy ishning betlari	Umumiy hajmga tengligi %	Bajarilganligi tug’risidagi belgi	Izoh
	Kirish	5			
	<i>Loyihaning dolzarbligi, maqsad-vazifalari, ishning o’quv-uslubiy va amaliy ahamiyati</i>	3		<i>Bajarildi</i>	
1.	UzR da tijorat banklari aktivlarini moliyaviy boshqarish asoslari.	5		<i>Bajarildi</i>	
1.1.	Tijorat banklari aktivlari moliyaviy mohiyati, mazmuni .			<i>Bajarildi</i>	
1.2.	Tijorat banklari aktivlari	5		<i>Bajarildi</i>	
1.3.	Tijorat banklari aktivlarining tashkiliy iqtisodiy va moliyaviy boshqarish usullari	14		<i>Bajarildi</i>	
2.	MS Access tizimida ma’lumotlar bazasini loyishalash	18			
3.	ATIB ASAKA BANK bank filiali aktivlari taxlili	6		<i>Bajarildi</i>	
3.1.	Tijorat bankining moddiy aktivlarining moliyaviy taxlili	6		<i>Bajarildi</i>	
3.2.	Tijorat bankining nomoddiy aktivlarining moliyaviy taxlili	14			
	Xulosa	4			

	<i>Jami:</i>	75			
--	--------------	----	--	--	--

Malakaviy ish rahbari: _____

Topshiriq olingan kun: _____

Talaba: _____

Islomov J

KIRISH

Banklar aro to'lov tizimi banklar o'rtasidagi elektron to'lovlarni banklarning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan vakillik hisob varaqlari orqali amalga oshirish uchun mo'ljallangan.

Banklar aro to'lov tizimining qoidalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Bankning ichki to'lov tizimi bank filiallari va mijozlari o'rtasida elektron to'lovlarni amalga oshirish, shuningdek banklar aro to'lov tizimi bilan o'zaro harakatda bo'lish uchun mo'ljallangan.

Bankning ichki to'lov tizimi qoidalari to'lov tizimining a'zosi — bank tomonidan belgilanadi.

Elektron to'lovlar to'g'risidagi qonun shujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun shujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining elektron to'lovlar to'g'risidagi qonun shujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

Texnika vositalaridan, axborot texnologiyalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to'lov shujjatlari vositasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish elektron to'lovdir.

Elektron to'lov to'lov tizimining subyektlari o'rtasida tuzilgan shartnomalar asosida to'lov tizimining belgilangan qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Elektron to'lovlar amalga oshirilayotganda to'lov tizimining subyektlari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar majmui to'lov tizimidir.

To'lov tizimining turlari:

banklararo to'lov tizimi;

bankning ichki to'lov tizimi;

chakana to'lovlar tizimi.

To'lov tizimining qoidalarida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

to'lov tizimi a'zolarining to'lov tizimiga a'zo bo'lishi va a'zolikdan chiqishi tartibi;

elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi va shartlari, shu jumladan elektron to'lov shujjati rekvizitlarining tarkibi va formati bo'yicha talablar;

axborot xavfsizligi va muhofazasini ta'minlash tartibi;

to'lov tizimining subyektlari o'rtasidagi nizolarni hal etish tartibi.

To'lov tizimining qoidalarida qonun shujjatlariga muvofiq boshqa qoidalar ham ko'rsatilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining elektron to'lovlarni tashkil etish va amalga oshirish masalalari bo'yicha normativ-shuquqiy shujjatlari to'lov tizimining barcha subyektlari uchun majburiydir.

To'lov tizimining a'zolari va to'lov tizimidan foydalanuvchilar to'lov tizimining subyektlaridir.

To'lov tizimidan foydalanuvchilarga elektron to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar to'lov tizimining a'zolaridir.

Qaysi yuridik yoki jismoniy shaxslarga elektron to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilayotgan bo'lsa, shu yuridik yoki jismoniy shaxslar to'lov tizimidan foydalanuvchilardir.

Chakana to'lovlar tizimi bank kartalari va boshqa elektron to'lov vositalari (bundan buyon matnda elektron to'lov vositalari deb yuritiladi) qo'llanilgan holda elektron to'lovlarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan. Elektron to'lov vositasi uning mazkur chakana to'lovlar tizimiga mansubligini identifikatsiyalash imkoniyatini beradigan farqlovchi belgilarga (tovar belgisiga, xizmat ko'rsatish belgilariga) ega bo'lishi kerak.

Chakana to'lovlar tizimining qoidalari mazkur chakana to'lovlar tizimini tuzgan tashkilot tomonidan belgilanadi.

To'lov tizimining subyektlari o'rtasidagi munosabatlar qonun shujjatlari va ular o'rtasida tuzilgan shartnomalar bilan tartibga solinadi.

Shartnoma yozma shaklda tuzilgan bo'lishi va unda quyidagi qoidalar ko'rsatilishi kerak:

elektron to'lovlarni amalga oshirishda elektron to'lov shujjatlarini jo'natish hamda qabul qilib olish tartibi;

elektron to'lovlarni amalga oshirish jarayonida elektron to'lov shujjatlarida elektron raqamli imzoning haqiqiylikni tasdiqlash tartibi;

elektron to'lovlarni amalga oshirganlik uchun haq miqdori;

tarafning shuquq va majburiyatlari, shu jumladan axborot xavfsizligi va muhofazasini ta'minlash bo'yicha majburiyatlari;

tarafning javobgarligi, shu jumladan elektron to'lovlarni amalga oshirishda yuzaga keladigan xavflar bo'yicha javobgarlikning taqsimlanishi;

nizolarni hal qilish tartibi.

To'lov tizimining subyektlari o'rtasida tuzilgan shartnomada qonun shujjatlariga muvofiq boshqa qoidalar ham ko'rsatilishi mumkin.

To'lov tizimining a'zolari elektron to'lovlarni amalga oshirganlik uchun haq olishga va qonunda belgilangan hollarda to'lov tizimidan foydalanuvchilarning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turishga haqlidir.

To'lov tizimining a'zolari tegishli to'lov tizimining belgilangan qoidalariga muvofiq elektron to'lov shujjatiga ishlov berilishini va uning muhofaza qilinishini ta'minlashlari kerak. Bunda to'lov tizimining a'zosi — bank:

to'lov tizimidan foydalanuvchining hisobvarag'iga tushadigan pul mablag'larini qabul qilishi va hisobga kiritishi, uning tegishli summalarni o'tkazish to'g'risidagi topshiriqlarini bajarishi;

o'zining aybi bilan noto'g'ri amalga oshirilgan operatsiyalarni tiklashi yoki tuzatishi;

to'lov tizimidan foydalanuvchiga uning hisobvarag'iga oid axborotni shartnomada belgilangan muddatlarda qog'ozdagi yoki elektron shaklda taqdim etishi;

pul mablag'lari oluvchining-to'lov tizimidan foydalanuvchining hisobvarag'iga tushganligini to'lovchining-to'lov tizimidan foydalanuvchining so'rovi bo'yicha qog'ozdagi yoki elektron shaklda tasdiqlashi shart.

To'lov tizimining a'zolari qonun shujjatlariga muvofiq boshqa shuquqlarga ham ega bo'lishi va ularning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

To'lov tizimidan foydalanuvchilar o'z hisobvaraqlarida turgan pul mablag'larini mustaqil tasarruf etishga va o'z hisobvaraqlari bo'yicha pul mablag'larining harakati to'g'risida axborot olishga haqlidir.

To'lov tizimidan foydalanuvchilar:

to'lov tizimining qoidalari bilan belgilangan axborotni muhofaza qilish tartibiga rioya etishi;

elektron to'lov vositalarining va identifikatsiya ma'lumotlarining saqlanishini ta'minlashi;

to'lov tizimining a'zosiga elektron to'lov vositalari yoki identifikatsiya ma'lumotlari yo'qolganligi to'g'risida shartnomada belgilangan muddatlarda xabar qilishi shart.

To'lov tizimidan foydalanuvchilar qonun shujjatlariga muvofiq boshqa shuquqlarga ham ega bo'lishi va ularning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

To'lov tizimining qoidalari bilan belgilangan tarkib va formatdagi rekvizitlariga ega bo'lgan hamda elektron to'lovni amalga oshirish uchun zarur axborotni o'z ichiga olgan elektron shujjat elektron to'lov shujjati hisoblanadi.

Elektron to'lov shujjati pul-hisob-kitobga doir qog'oz shujjat (bundan buyon matnda pul-hisob-kitob shujjati deb yuritiladi) asosida yoki elektron to'lov vositasidan foydalangan holda tuziladi va elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanadi.

Elektron to'lov shujjati bilan ishlashda uni elektron to'lovni amalga oshirish uchun zarur rekvizitlarni saqlagan holda qog'ozda takrorlash imkoniyati ta'minlanishi kerak.

Elektron to'lov shujjatiga ishlov berish elektron to'lov shujjatini qabul qilish, kiritish, yozish, qayta tuzish, o'qish, qayd etish, almashtirish, saqlash va yo'q qilish bilan bog'liq operatsiyalarni bajarish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Elektron to'lov shujjatiga, basharti u elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tasdiqlash taomilidan o'tgan hamda to'lov tizimining qoidalari bilan belgilangan tarkib va formatdagi rekvizitlarga ega bo'lsa, ishlov beriladi.

To'lov tizimidan foydalanuvchilarning tegishli hisobvaraqlaridan pul mablag'lari elektron to'lov shujjatlari ishlov berish natijalari bo'yicha hisobdan chiqariladi yoki hisobga kiritiladi.

Elektron to'lov shujjalari pul-hisob-kitob shujjatlarini saqlash uchun qonun shujjatlarida belgilangan muddat mobaynida elektron axborot tashuvchi jismlarda saqlanadi.

Elektron to'lov shujjati pul-hisob-kitob shujjatiga tenglashtiriladi va u bilan bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi.

To'lov tizimining a'zosi — bank to'lov tizimidan foydalanuvchining topshirig'iga binoan elektron to'lovni tegishli to'lov shujjati tushgan kunda, agar u bankning operatsiya kuni mobaynida tushgan bo'lsa, amalga oshirishi shart, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Agar to'lov shujjati operatsiya kuni tugaganidan keyin tushsa, to'lov tizimining a'zosi — bank elektron to'lovni keyingi ish kunidan kechiktirmay amalga oshirishi shart, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Elektron to'lovlarni amalga oshirishning ushbu Qonunning [17-moddasida](#) belgilangan muddatlari to'lov tizimining a'zosi tomonidan buzilgan taqdirda, u kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan elektron to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan elektron to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda to'lov tizimidan foydalanuvchiga penya to'lashi shart.

To'lov tizimi a'zosining aybi bilan elektron to'lov noto'g'ri amalga oshirilgan taqdirda, to'lov tizimining a'zosi mablag'ni xatolik aniqlangan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan oluvchining — to'lov tizimidan foydalanuvchining hisobvarag'iga o'tkazishi shart. Aks holda, to'lovchi — to'lov tizimidan foydalanuvchi to'lov tizimining a'zosidan mablag'larni qaytarishni, shuningdek kechiktirilgan har bir kun uchun noto'g'ri amalga oshirilgan elektron to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, lekin noto'g'ri amalga oshirilgan elektron to'lov

summasining 10 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'lashni qonunda belgilangan tartibda talab qilish shuquqiga ega.

To'lov tizimining subyektlari to'lov tizimida axborot xavfsizligi va muhofazasini ta'minlash bo'yicha, shu jumladan elektron to'lov shujjatlaridan ruxsatsiz foydalanish, ularga o'zgartishlar kiritish, ularni yo'qotish, yo'q qilish va to'sib qo'yishdan muhofaza etishni ta'minlash bo'yicha belgilangan talablarga rioya etishlari kerak.

To'lov tizimining subyektlari to'lov tizimida axborot xavfsizligi va muhofazasini ta'minlashning qo'shimcha vositalari va usullarini belgilashlari mumkin.

To'lov tizimining a'zolari elektron to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashlari kerak.

Elektron to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlar uchinchi shaxslarga taqdim etilmaydi, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno.

Elektron to'lovlar sohasidagi nizolar qonun shujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Elektron to'lovlar to'g'risidagi qonun shujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Ishning maqsad va vazifalari. MS Accessda Asaka bank aktiv va passivlar bazasini boshqarish bazasini yaratish jarayonlarining elektron ba'zasini yaratish (Qashqadaryo viloyati misolida) MS Accessda avtomatlashtirilgan dasturiy ta'minotini yaratish va ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishlariga yordam beradigan ma'lumotlar tayyorlashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim.

- Asaka bank aktiv va passivlar bazasini boshqarish bazasini yaratish elektron ba'zasi avtomatlashtirish masalasi aniqlash;
- Ma'lumotlar bazalari va ularni boshqarish tizimlari haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish;
- Asaka bank aktiv va passivlar bazasini boshqarish bazasini yaratish jarayonni taxlil qilish;

- Asaka bank aktiv va passivlar bazasini boshqarish bazasini yaratish jarayon ma'lumotlar bazasining konseptual sxemasini yaratish;
- Asaka bank aktiv va passivlar bazasini boshqarish bazasini yaratish jarayon ma'lumotlar bazasi jadvallarini yaratish;
- Asaka bank aktiv va passivlar bazasini boshqarish jarayon jadvallari va so'rovlari asosida forma yaratish;
- Asaka bank aktiv va passivlar bazasini boshqarish jarayon boyicha xisobotlarni loyihalash va tayyorlash;
- Tafsiya va mulohazalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining obekti. Asaka bank aktiv va passivlar bazasini boshqarish ma'lumotlar bazasi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari bo'lib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yil 12 noyabr Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" nomli ma'ruzasida "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish" bandi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish, "Internet"ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini ta'minlash dasturni ishlab chiqishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi, O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-1989, 27.06.2013 (2013 g.) . "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1942, 26.03.2013 . " Mamlakatimizning dasturiy ta'minot vositalari ishlab chiquvchilarini rag'batlantirishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori PQ-2042, 20.09.2013. qarori va boshqa meyoriy xujjatlar, shuningdek, soha yetakchi olim va mutaxasislari tomonidan yaratilgan nazariyalar tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi. Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-uslubiy yangiligi quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

- Asaka bank aktiv va passivlar bazasini boshqarishning elektron ba'zasi avtomatlashtirish masalasi ko'rib chiqilgan;
- Asaka bank aktiv va passivlar bazasini boshqarish bazasini yaratish Ma'lumotlar bazalari va ularni boshqarish tizimlari haqida nazariy ma'lumotlar berilgan;
- Asaka bank aktiv va passivlar bazasini boshqarish jarayoni taxlil qilingan;
- Asaka bank aktiv va passivlar bazasini boshqarish jarayon ma'lumotlar bazasining konseptual sxemasini yaratilgan;
- Asaka bank aktiv va passivlar bazasini boshqarish jarayon ma'lumotlar bazasi jadvallarini yaratilgan va prognoz qilish algoritmlari ishlab chiqilgan;
- Asaka bank aktiv va passivlar bazasini boshqarish jarayon jadvallari va so'rovlari asosida forma yaratilgan;
- Tafsiya va mulohazalar ishlab chiqish.
- Asaka bank aktiv va passivlar bazasini boshqarish jarayon MS Access - relyatsion ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi asosida avtomatlashtirilgan;
- Asaka bank aktiv va passivlar bazasini boshqarish jarayonni boshqarishning avtomatlashtirilgan shaklini tayyorlatgan;

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida erishilgan natijalar ta'lim muassasalarida joriy qilinganda, Asaka bank aktiv va passivlar bazasini boshqarish bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchi va doktorantlar, magistrlar uchun ma'lumotlarni avtomatlashtirishga, ular haqida batafsil ma'lumotlar olishni amalga oshirishga yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida Respublikamizda axborot texnologiyalarini jamiyatimizning barcha sohalariga joriy qilish, ta'lim tizimi, ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni haqida to'xtalib o'tilgan

I –Bob UzR da tijorat banklari aktivlarini moliyaviy boshqarish asoslari.

1.1. Tijorat banklari aktivlari moliyaviy mohiyati, mazmuni .

Mustaqillik yillarida O'zbekiston iqtisodiyotini islox qilishning muxim natijasi bank tizimini barqarorlashtirishga erishilgani buldi.

Bu esa bozorni shakllantirishdagi muxim jihatdir .

Xalq xujaligini islox qilishning asosiy vazifalaridan biri bank faoliyatini jonlashtirish va uning iqtisodiy usishini ta'minlovchi yangi mexanizmni ishlab chikarishdan iborat .

Bank aktivlarini jonlashtirish - bu ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga utayotgan barcha mamlakatlar duch kelgan eng murakkab muammolardan biridir . Xujalik subyektlarida moliyaviy resurslarning yetishmasligi sarmoya quyish darajasi oshishini chegarlab turuvchi asosiy sabab bulib qolmoqda .

Taklif etilayotgan ishlab chiqarish omillariga -(ish kuchi, uskunarlar, konstruksion materiallar) nisbatan tulov kobiliyatiga ega bulgan talab yuqori bulmoqda . Bozor isloxotlari ba'zi Banklar moliyaviy axvolining yomonlashuviga sabab buldi . Bu xolat faqat real foydaning (narx darajasidagi uzgarishlarini xisobga olgan xolda) pasayishgina emas, balki shu bilan birga, rentabellik darajasining kamayishida, zarar keltirayotgan ishlab chiqarishning kupayishi , qarzlar va tulovlar uz vaqtida tulasligi darajasining oshishida xam namoyon buldi .

Qarzlar ning ortib borish Banklarning yangi sharoitida yaxshi ishlayotganidan guvoxlik beradi . Pul kadrsizlanishi va shartnomaviy intizomning sustligi jarayonida qarzlarining vaqtida tulanmaslik xolati ayrim Bank va banklarning uz vaqtida xisob kitob qilinmasligida qushimcha

daromad olish uchun foydalanishiga, mablag'larning vositachi, moliya kredit operatsiyalariga jalb etilishga olib kelmoqda . Buning natijasida Bank va banklar tulovlarning kechiktirilishidan ba'zilar esa xatto foyda oladilar xam . Chunki kechiktirilgan muddat davomida inflyatsiya buladi va qarz birmuncha qadrsizlangan nominal summa tarzida tulanadi.

Bu urinda ular oladigan foyda tulov kechiktirilgan muddatga tugri proporsionaldir . Bu xollatda faqat inflyatsiya va tulovsizlik sarf - xarajatlarini uz ist'molchilari buyniga yuqlagan Banklarga yaxshi axvolda buladilar . Umuman, bu xollat ishlab chiqarish tarmogi Banklarida real mablag'larning qisqarishini anglatadi . Bu esa , ularning uz investitsion zaxira mablag'larini xam kamaytiradi .

Sarmoya soxasidagi isloxlarning asosiy yunalishlaridan biri davlat tomonidan dotatsion sarmoya quyishni qisqartirish xisoblanadi . Bu isloxlarning umumiy dasturi va shuningdek, iqtisodiy inkiroz vaziyati bozor iqtisodiyotiga utishning amaliy tadbirlari uziga xosligi bilan belgilanadi .

Moliyaviy xisobotlarning Xalqaro standartlariga kura moliyaviy aktivlar turkumiga

kreditlar va olish uchun xisoblangan mablag'lar, sundirishgacha ushlanadigan investitsiyalar, xaqqoniy baxosining uzgarishi daromadlar va xarajatlarda aks ettiriluvchi investitsiyalar, sotish uchun mavjud bulgan investitsiyalar xam kiradi.

Aktivlar diversifikatsiyasi u yoki bu qiyilmalarga joylashtirilgan aktivlardan eshtimoliy xatar oqibatida bank olishi mumkin bilgan zararni kamaytirish maqsadida aktivlarni turli yinalishlar buyicha turlash: ya'ni tarmoqlar, sohalar, muddatlar, valyuta turlari, miqdorlar urtasida mutanosib ravishda taqsimlashdir.

Raqobat va xizmat bozoridagi tendensiyalardan kelib chiqib aktivlar oqilona ravishda taqsimlangan sholda, biror bir soshaga yinaltirilgan aktivlarning daromad keltirmasligi, zarar keltirishi yoki yiqolishi (quyishi) boshqa soshaga yinaltirilgan aktivning daromadlari shisobiga qoplanishi yoki bankka keladigan zarar minimallashtirilishi mumkin.

Aktivlar buyicha maxsus zashiralar tasniflangan aktivlarning shar-biri buyicha aloshida, aktivga tegishli bilgan shisobvaraq gruppasida, shar bir aktiv buyicha konkret (tegishli mijozning krediti buyicha, sotib olingan qimmatli qog'oz buyicha va shakozo) tuziladigan zashiralardir. Maxsus zashiralar bankning joriy yil foydasi hisobidan, Markaziy bankning 1999 yil 11 noyabr Adliya vazirligida № 632 son bilan riyxatga olingan "Tijorat banklari va ularning filiallari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, sudalar buyicha yuzaga kelishi mumkin bilgan yuqotishlar urnini qoplash uchun tashkil etiladigan zahirani shakllantirish va undan foydalanish tartibi"ga kira, "Standart" aktivlar uchun 10 %, "Substandart" aktivlar uchun 25 %, "Shubshali" aktivlar uchun 50% va "Umidsiz" aktivlar uchun 100 % miqdorda tuzilishi lozim.

Umumiy zahiralar – bank faoliyatida vujudga kelishi mumkin bulgan xatarlar va tavakkalchilikni umumiy baholagan holda, kapital tarkibida tuziladigan zahiralaridir. Masalan: umumiy zahiralar fondi, devalvatsiyaga qarzi zahira, bank mulki qiymatining uzgarishiga tuzilgan zahiralar va hakoza.

Aktivlar tavakkalchilik darajasiga kira qanday turlarga bilinadi?

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2000 yil 5 iyulda № 949 son bilan Adliya vazirligida riyxatga olingan "Tijorat banklari kapitalining yetarligiga qiyiladigan talablar tig'risidagi Nizom"ga asosan, balans aktivlari tavakkalchilik darajasi buyicha 0, 20,50, 100 foizli tirt guruhga bilinadi. Aktivlarning tavakkalchilik darajasi ohib borgan sari, bunday aktivlar kapitalning muayyan miqdori bilan tiliq ta'minlangan bilishi zarurligini anglatadi.

Tavakkalchilikdan xolis bilgan (0 foizli) aktivlar: bankda naqd pul kirinihida saqlanayotgan milliy va chet el valyutasi, tijorat banklarining Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlaridagi va majburiy zahira talablari buyicha deponentlashtirilgan mablag'lar, Izbekiston Shukumati va Markaziy banki qimmatli qog'ozlari va ularning bank oldidagi majburiyatlari, № 949 Nizomda keltirilgan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga kiruvchi rivojlangan mamlakatlar Shukumatlari va Markaziy banklari qimmatli qog'ozlari va ularning bank oldidagi majburiyatlari.

Eng kam tavakkalchilik darajasiga ega (20 foizli) aktivlar: № 949 Nizomda keltirilgan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga kiruvchi rivojlangan mamlakatlarda riyxatga olingan depozitar institutlarga joylashtirilgan aktivlar, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, Yevropa tiklanih va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro kredit tashkilotlari tomonidan muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar va ular bilan ta'minlangan aktivlar;

Irtacha tavakkalchilik darajasiga ega (50 foizli) aktivlar: jismoniy haxslarga uy-joy sotib olish uchun berilgan va sotib olinayotgan uy-joy bilan ta'minlangan kreditlar, agar ssuda miqdori garov qiymatining 60 foizidan ohmasa, № 949 Nizomda keltirilgan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga kiruvchi rivojlangan mamlakatlar mas'halliy hokimiyat organlari tomonidan kafolatlangan aktivlar va ularning bank oldidagi majburiyatlari;

YUqori tavakkalchilik darajasiga ega (100 foizli) aktivlar: bankning boshqa barcha aktivlari, jumladan, bank tomonidan berilgan barcha kreditlar, asosiy vositalar, jihozlar, kichmas mulk.

Aktivlarning sifati. Barcha bank rahbarlariga ma'lumki, aktivlarning sifati bank likvidligiga ta'sir qiladi. Muammoli kreditlar ya'ni muddati itgan foyda keltirmayotgan kreditlar va pul mablag'lari harakatining kamligi bank likvidliligiga ta'sir kirsatadi.

Resurslarning jamlanganligi. Masalan, Bankning davlatning va yirik Banklarning depozitlariga haddan ortiq qaramligi bankning likvidlik tavakkalchiligining ohihiga sabab biladi. Chunki Ushbu depozitlar har hil byudjet tilovlari yoki ih haqi tilash uchun har qanday vaqtda qaytarib olinihi mumkin;

Bankning umumiy moliyaviy holati, bankning kapitali va foydaliligini hisobga olgan holda. Bankning moliyaviy holati yomon bilsa, talab qilinayotgan vositalarni yil qiyib bilmaydigan yuqori narxlarda olishi yoki banklararo bozorga kira olmasligi mumkin. Vositalardan foydalanihning imkoni bilsada, qarz beruvchi yoki depozit singari yuqori likvidli yoki oson sotiluvchan ta'minot berilishini talab qiladi. Bank esa bunga yil qiya olmaydi;

Balansdan tahqari majburiyatlar va shartnomalar, jumladan, ishlatilmayotgan kredit liniyalari, akkreditivlar, qimmatbaho qog'ozlar va valyutani sotib olish uchun tuzilgan kelishuvlar.

Umidsiz» aktivlar buyicha tashkil etiladigan zahiralar hisobidan qoplangan holda, bank balansidan bankning «Kuzda tutilmagan xolatlar» xisobvaraqlariga utkaziladi.

Bankda “umidsiz” aktivlarni extimoliy zararlarni qoplash uchun zaxiralar xisobidan qoplash tug'risidagi karor bank Boshqaruvi tomonidan kabul qilinadi va mazkur karor kabul qilingandan sung bank Boshqaruvi 3 kun muddat ichida bu xakida bank Kengashini xabardor kiladi.

«Umidsiz» kreditlar 5 yil muddat moboynda bankning «Kuzda tutilmagan xolatlar» xisobvaraqlarida xisobga olib boriladi.

1.2. Tijorat banklari aktivlarining tashkiliy iqtisodiy va moliyaviy boshqarish usullari

Tijorat banklari aktivlarining tashkiliy iqtisodiy boshqarish tartibi "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tug'risida", "Banklar va bank faoliyati tug'risida" va "Buxgalterlik xisobi tug'risida"gi konunlarga muvofik ishlab chikilgan bulib, aktivlarni tasniflash meyorlari, tijorat banklari tomonidan aktivlar buyicha yuzaga kelishi mumkin bulgan va mavjud yuqotishlar uchun tashkil etiladigan zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini belgilab beradi.

Bunda bankning xisobotlari aktivlar sifatining mavjud xolatini aks ettirishi lozim. Ushbu ma'lumotlarning mavjud bulmasligi bank omonatchilari, kreditorlari va aksiyadorlari, shuningdek, Markaziy bank va boshqa manfaatdor tomonlarni yangiliktirishga urinish deb tushuniladi. Bunday faoliyat xavfli va nosoglom bank amaliyotiga kiradi. Bank balansi tuzilmasida daromad keltirmaydigan aktivlar ulushining kattaligi, shuningdek, balansdan tashqari xisobi yuritiladigan qaytarilmagan aktivlar summasining kattaligi bank ijro rahbariyatining malakasi Markaziy bank talablariga muvofik kelmasligi xamda Kengash tomonidan bank faoliyati yetarli nazorat etilmasligini aniqlash uchun asos buladi.

Xarakatsiz kreditlarning yuqori darajada bulishi bank kredit siyosati, kreditlarni strukturizatsiya qilish mezonlari va ssudalarni boshqarish tartibi buhligi kursatkichi bulishi mumkin. Aktivlar portfeli sifati tug'risida obyektiv va uz vaqtida topshiriladigan axborotning mavjud bulmasligi bank rahbariyatini tegishli ravishda tuzatish chora-tadbirlarini kurish imkoniyatidan xam maxrum etishi mumkin. Mazkur Tartibga muvofik barcha tijorat banklari uz aktivlarini tasniflash xamda shubxali va xarakatsiz aktivlar buyicha yuzaga kelishi mumkin bulgan zararlarni qoplash uchun yetarli bulgan zaxirani tashkil etadi.

Ssudalar (aktivlar) buyicha extimoliy yuqotishlarni qoplash uchun zaxira - bank kredit portfeli (yoki aktivlari) va balansdan tashqari majburiyatlarda yuzaga

kelishi mumkin bulgan yoki mavjud zararlarni qoplash uchun qiymat summasini uzida aks ettiradigan bankning barcha kreditlari (yoki boshqa aktiv xisobvaraqlari) buyicha zararlarni qoplash uchun tashkil etilgan zaxiralar kontr-aktiv xisobvaragi. Maxsus zaxira - “standart”, “substandart”, “shubxali” va “umidsiz” deb tasniflangan kreditlar va lizing yoki boshqa aloxida muayyan aktivlar buyicha yuzaga kelish mumkin bulgan zararlarni qoplashga muljallangan zaxira. Umumiy zaxira - bu zaxira bank faoliyati buyicha umuman yoki biror-bir faoliyat turi (kreditlash, investitsiyalash va b.) buyicha yuzaga kelishi mumkin bulgan zararlarni qoplash uchun muljallangan. Aloxida muayyan operatsiyalarga doir zararlar bundan mustasno. “Yaxshi” kreditlar buyicha yuqotishlarga karshi yoki milliy valyuta devalvatsiyasi buyicha zaxiralar bunga misol bula oladi.

Muddati utgan ssudalar - qarzdor tomonidan kredit shartnomasida kuzda tutilgan tulash shartlari va jadvali buzilgan xamda asosiy qarz va unga doir foizlarning navbatdagi tulovi tulov muddati yetib kelganidan sung tulanmagan kreditlar. Restrukturizatsiya qilingan ssudalar - qarzdorning moliyaviy axvoli yomonlashishi sababli tulovning dastlabki shartlari uzgargan ssudalar. Agarda bank tomonidan quyidagi amallarning xech bulmaganda bittasi bajarilsa, ssuda restrukturizatsiyalangan xisoblanadi:

- foiz stavkasining kamaytirilishi yoki xisoblangan foizlarning undirib olinmasligi;
- jami asosiy qarzning kamaytirilishi yoki undan voz kechilishi ;
- kreditni tulash muddatining kechiktirilishi yoki uzaytirilishi ;
- foizlarga doir tulovlarning bir qismi yoki umumiy miqdoridan voz kechih;
- oddiy sharoitlarda qarzdorga berilmay, balki kreditni restrukturizatsiyalash zarurligi natijasida qilinishi mumkin bulgan boshqa yon berishlar.

Yangi bozorga doir (imtiyozli) foiz stavkalari - yangi ssuda dastlabki yoki yangi qarzdorga pasaytirilgan foiz stavkalarida berilayotganda qullaniladi. Bunday ssudalar Banklarga xukumat karorlariga kura berilishi mumkin. Shuningdek ular qarzdor tomonidan ssuda tulanmasligi okibatida bank tomonidan xuquqlar olingan qarzdorning aktivlari (garov)ni sotish uchun xam berilishi mumkin. Pasaytirilgan foiz stavkali yangi ssudalar uchun foiz stavkasi qaytarilishi aynan shunday tavakkalchilikka xos kreditlarga doir kreditlashning foiz stavkasidan past bulmasligi lozim.

Ustirilmaydigan kreditlar (aktivlar) - belgilangan tartibga muvofik foizlar xisoblanishi tuxtatiladigan kreditlar (aktivlar).

Yaxhi ta'minlangan kreditlar - qimmatli kog'ozlar bozorida baxolanadigan mulk yoki kreditning asosiy summasi va unga doir foizlarni tuliq qoplash imkonini beradigan miqdorda bank depozitlari kurinihidagi garov bilan ta'minlangan kreditlar.

Qisman ta'minlangan kreditlar - "yaxshi ta'minlangan kreditlar" mezoniga muvofik kelmaydigan ta'minot. Xususan, ularga doir taqdim etilgan garov qiymati kredit summasi va unga doir foizlarning 100 foizidan, shuningdek, garovni sotishda kuzda tutilayotgan xarajatlardan kam (e'lon qilingan garov qiymatidan qat'iy nazar) yoki e'lon qilingan qiymat buyicha garovning sotilishi shubxa tugdiradigan kreditlar.

Ta'minlanmagan kreditlar - biror-bir ta'minotsiz berilgan ssudalar. Odatda bunday ssudalar qarzdorning kuchli tushumlari potensiali yoki uning yaxhi kredit tarixi asosida beriladi. "Ta'minlanmagan kreditlar"ga, garov belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan kreditlar xam kiradi.

Aktivlarni tasniflashda Aktivlarni tasniflash tizimi barcha turdagi kreditlar, jumladan, bank kafolatlari, kredit liniyalari, banklararo kreditlar, overdraftlar uchun qullaniladi va balansdan tashqari majburiyatlarni tasniflashni kuzda tutadi.

Mazkur tizim boshqa bank aktivlari, jumladan, investitsiyalar, qimmatli kog'ozlar oldi-sotdisi, olishga doir xisobvaraklar, uchinchi haxslar nomidan majburiyatlarni bajarih buyicha sotib olingan talab qilish shuquqi va qaytarilmaslik xatari mavjud bulgan boshqa aktivlarni baxolashda xam qullanilishi mumkin.

Kreditni tasniflash tizimi quyidagi mezonlar buyicha qarzdorni baxolashdan boshlanadi:

- tendensiya va tarmok (iqtisodiy sektor) kelajagi;
- qarzdorning moliyaviy axvoli;
- mijozning kredit tarixi;
- muayyan loyixaning iqtisodiy jixatdan asoslanihi (nizomi);
- Bankdagi raxbarlik va boshqarish sifati (agar kredit Bankga berilsa).

Kredit taxlili va aktivlar tasnifi natijalari qarz oluvchining moliyaviy axvoli, kreditlarni tulash tarixi va tegishli tarzda rasmiylashtirilgan garovning mavjudligi kabi omillarga bog'liq. Ushbu omillarni kredit portfeli va tijorat bankining boshqa aktivlariga xos bulgan tavakkalchilikni aniqlash va baxolashda kullash juda muximdir.

Bank aktivlari quyidagi tartibda va toifalar buyicha tasniflanadi:

Yaxhi. Ushbu aktivlar buyicha qarzlar ning uz muddatida tulanishi shubxa tugdirmaydi. Qarz oluvchi moliyaviy jixatdan barkaror xisoblanadi, u yetarli miqdorda kapitalga, yuqori daromadlilik darajasiga xamda barcha mavjud majburiyatlar, jumladan, mazkur qarzni qondirish uchun yetarli pul mablag'lari okimiga ega. Qarz oluvchi amalda bajariladigan, jumladan, bozorda rakobatlasha olish, yaxhi maxsulot ishlab chikarihga doir strategik rejani takdim etadi va uz maxsulotlari uchun marketing rejasiga ega buladi. Qarzdor mavkeini baxolash kreditga doir tulovlar tarixi, garovning bozorda sotilishi (mulk va kuchmas mulk, kafolat) kabi omillarni uz ichiga kamrab oladi. Garov "yaxhi ta'minlangan" kredit

mezonlariga mos keladi. Garov amaldagi konunchilikka muvofik notarial jixatdan puxta tasdiklangan bulishi va zarur xollarda tegishli mulk bitimini ruyxatdan utkazih uchun belgilangan tartibda ruyxatga olinihi lozim. Bank kredit qaytarilmagan xolda cheklovlarisiz va erkin ravishda uni garov xisobidan undirib olishi mumkin. Ta'minotga doir takdim etilayotgan barcha xujjatlar konunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi kerak.

“Yaxhi” deb tasniflangan kreditlarda ular qaytarilmasligi alomatlari bulmaydi.

Foizlar muddati utgan ssudalar “Yaxhi” deb tasniflanihi mumkin emas.

Standart. Standart toifaga kiritilgan aktivlar berilishida ikkilamchi tulov manbasi (kafolat yoki garov bilan) puxta ta'minlangan bulishi lozim. Umuman olganda qarzdorning moliyaviy axvoli barkaror xisoblanadi, lekin ayrim noqulay vaziyatlar yoki yunalishlar mavjud bulib, agarda ular bartaraf etilmasa, qarzdorning kreditni uz vaqtida tulash kobiliyatiga nisbatan shubxa uygonihi mumkin. Shu bilan birga moliyaviy axvol yoki garovni nazorat qilish borasida bir muncha shubxalar bulishi mumkin. Kredit xujjatlarida yetarlicha axborot bulmagan yoki garov ta'minoti buyicha xujjatlari bulmagan “Yaxhi” kreditlar (aktivlar) xam “Standart” aktivlar sifatida tasniflanihi mumkin. Tulanmagan foizlari yangi kreditga aylanadigan (kapitallashtiriladigan) kredit xech bulmaganda “Standart” aktiv sifatida tasniflanihi zarur. Qisqa vakt mobaynida (30 kungacha) kechiktirilgan kreditlar “Standart” aktivlar sifatida kurib chiqilishi mumkin. Birok, kechiktirilih makomi aktivning tasniflanihini baxolashda asosiy omil bulmasligi lozim.

“Standart” sifatida tasniflangan aktivlar buyicha bank qaytarilmagan asosiy qarz summasining 10 foizi miqdorida zaxiralar tuzihi shart.

Substandart. Substandart aktivlar aniq ifodalangan kamchiliklar belgilariga ega bulib, bu xolat dastlabki shartnomaga muvofik qarz qaytarilishi shartlarining bajarilishiga shubxa uygotadi. “Substandart” sifatida tasniflangan kreditlarda qarz

tulashning dastlabki manbai qarzga xizmat kursatish uchun yetarli darajada bulmaydi va bank qarzni qaytarish uchun kuhimcha manbalar (garovdan undirish va qarzdor tomonidan ssuda qaytarilmaganda garovni sotish, asosiy fondlarni sotish singari manbalar)ni kidirihga majbur buladi. Shuningdek, substandart aktivlar ihonchli joriy moliyaviy axvol va qarz oluvchining tulov kobiliyati bilan ximoyalanmagan. Substandart aktivlar odatdagiga nisbatan konikarli joriy moliyaviy axborotning yuqligi yoki garov xujjatlarining yetarli emasligi bilan bog'liq bulgan tavakkalchilik darajasi ancha yuqori bulgan kreditlarni ifodalaydi. Ular buyicha foizlar yoki asosiy qarz 30 kundan ortik muddat davomida kechiktirilgan ta'minlanmagan kreditlar, xech bulmaganda, substandart sifatida tasniflanihi zarur, shuningdek, 90 kundan ortik muddat davomida kechiktirilgan ta'minlangan kreditlar xam substandart sifatida tasniflanihi lozim.

Shuningdek, quyidagi muammo yoki xususiyatlardan kamida bittasi mavjud bulsa, aktiv tulov muddati tulgunicha substandart sifatida tasniflanihi mumkin:

a) asosiy tulov manbalari qarz tulash uchun yetarli emas, bank garovga quyilgan mulkni sotish, qarz oluvchining boshqa asosiy mablag'larini sotish, tulanishi lozim bulgan boshqa qarz mablag'larini qayta moliyalash kabilarni xisobga olgan xolda kuhimcha tulov manbalarini topihi kerak;

b) qarz oluvchining joriy moliyaviy xolati yoki uning pul mablag'larining muljallanayotgan okimi majburiyatlarni qoplash uchun yetarli bulmagan xollarda;

v) qarz oluvchi kapitali kup darajada yetarli bulmagan Bank bulgani takdirda;

g) Ushbu soxaga nisbatan yunalish va istiqbollar barkaror bulmagan xolda;

d) kreditlar (aktivlar), garov qiymati asosiy qarz summasidan ohmagan, xech bulmaganda asosiy qarzning tulanmagan summasiga teng bulgan xolda (ya'ni kredit kisman ta'minlangan bulsa).

“Substandart” sifatida tasniflangan aktivlar buyicha bank asosiy qarzning tulanmagan summasining 25 foiziga teng bulgan zaxiralarni shakllantirihi lozim.

